

No 01-12/4095«30» 12 2025 yil**“O‘zbekiston Respublikasi  
milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ****“O‘zRTXB”AJ aksiyadorlariga  
(ro‘yxat bo‘yicha)****“O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati  
aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida  
XABARNOMA****HURMATLI AKSIYADORLAR!**

“O‘zRTXB” AJ aksiyadorlariga **2026-yil 22-yanvar** kuni soat 11:00da aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishini ma‘lum qiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarini masofadan turib internet tarmog‘ida onlayn rejimda o‘tkazishga mo‘ljallangan “Elektron ovoz berish - eVOTE” (<http://evote.uz/>) elektron ovoz berish servisi orqali o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etuvchi “O‘zRTXB”AJ aksiyadorlari reyestrini shakllantirish kuni: **2026-yil 16-yanvar**.

**Kun tartibi:**

1. **“O‘zRTXB” AJ aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash.**
2. **“O‘zRTXB” AJ Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash to‘g‘risida.**
3. **“O‘zRTXB” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomni yangi tahrirda tasdiqlash to‘g‘risida.**
4. **“O‘zRTXB” AJ boshqaruv organlarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi Nizomni yangi tahrirda tasdiqlash to‘g‘risida.**

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan aksiyadorlar Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi 77-uyda joylashgan Birja binosida, 2026-yil 12-yanvar boshlab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan kunga qadar ish kunlari soat 10-00 dan 16-00 gacha tanishib chiqishlari mumkin.

Aksiyadorlar <http://evote.uz/> internet saytining elektron ovoz berish servisi orqali yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatiga kiritilganligi haqida elektron xabar olgan vaqtdan boshlab Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlar sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida elektron ovoz berish servisi orqali ishtirok etish qoidalari (shartlari) bilan <http://evote.uz/> saytida tanishib chiqishingizni so'raymiz.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ushbu yig'ilishda ko'rib chiqiladigan materiallar bilan tanishish yuzasidan savollar bo'yicha (71) 207-00-33 (ichki:1045) telefon raqami orqali murojaat qilishingizni so'raymiz.

Aksiyadorlar o'z murojaatlarini quyidagi elektron manzillarga yuborishlari mumkin: [info@rtsb.uz](mailto:info@rtsb.uz).

**Boshqaruv raisi**



**A.Qayumov**